



6-7 YOSHLI BOLALARDAGI XAVOTIRLI HOLATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xusanova N.B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası
o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: xavotir, qo'rquv, tortinchoqlik, psixika, psixologiya, tashvish, norozilik.

Ключевые слова: тревога, страх, застенчивость, психика, психология, неудовлетворенность.

Key words: anxiety, fear, shyness, psyche, psychology, worry, dissatisfaction.

Резюме:

Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixoemotsional xususiyatlari tavsifi, maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlik holatlari namoyon bo'lishining psixologik omillari masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

Резюме:

В данной статье основное внимание уделяется описанию психоэмоциональных особенностей детей дошкольного возраста, психологических факторов проявления тревожности у детей дошкольного возраста.

Summary:

This article focuses on the description of psycho-emotional characteristics of preschool children, psychological factors of the manifestation of anxiety in preschool children.

Jahonda tobora rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanishini belgilab bermoqda. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, bolalar har bir mamlakatning o'rtacha 23-27 % aholisini tashkil qiladi. Turli sabablar bilan bolalarning 22 % ta'lim-tarbiya tizimida rivojlanish jarayonida psixologik yordamga muhtoj, buning sabablaridan biri bolalardagi xavotirlanish muammosi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalar hayotidagi ilk ta'lim muassasasi hisoblanadi. Bola ota-onasidan uzoqda, yolg'iz, begona insonlar qurshovida bo'lish hissini ilk bor shu maskanda his qiladi. Demak, bu davr 6-7 yoshli bolalar uchun juda muhimdir vas hu bilan birga qiyin davr desak ham mubolag'a bo'lmaydi.



Bolaning yoshi, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolaning yoshi uning shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan davr hisoblanadi. Sababi bu yoshda bolaning shaxsiy fazilatlari shakllana boshlaydi va uning keyingi hayotini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bola oiladagilaridan tashqari boshqalar bilan munosabatga kirishishi biroz vaqt talab etadigan va ancha murakkabroq davr hisoblanadi. Ayniqsa bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qadam qo'ygan ilk kunlarida xavotrga tushishi, o'zini boshqalardan olib qochishi, kam gapirishi, yoki umuman gapirmasligi, begonasirashi bularning barchasi tabiiy hol. Aynan shu davrda ko'p bolalarda xavotir, qo'rquv, emotsional beqarorlik, injiqlik va shu kabi psixologik jarayonlar tez tez uchrab turishi ham ehtimoldan holi emas. Maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'nikish va moslashish uchun ularga biroz vaqt kerak bo'ladi. Ayni paytda bolaning psixoemotsional farovonligini saqlashni nazorat qilish, tashxislash va oldini olish alohida e'tiborga loyiq muhim masala hisoblanadi. Sababi, maktabgacha yoshdagi bolaning mulki va shaxsiy sifatini shakllantirgan holda, xavotir maktab yoshida barqaror shaxsiy xususiyat bilan ham, kattalar hayotida ham nevroz va psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Agar bu holat 1 oyda o'tib ketsa, bu normal holat hisoblanadi. Lekin bu holat o'tib ketmasa, battar yomonlashsa, bola injiqlik qilishni boshlasa, hattoki bog'chadan qochib ketishga urinish holatlari kuzatilsa, boshqalar bilan aloqa o'rnatishga harakat qilmasa bu endi tabiiy holat sifatida qabul qilinmasligi kerak. Ortiqcha tashvishlanish bolada xavotirli holatlarning borligini va ularning keragidan ortiqiligini namoyon qiladi. Bunda bolaga psixologik yordam zarur. Yangi joyga moslashishda bolalar kuchli hissiy emotsional davrni boshdan kechiradilar. Bunda bolalarda yig'lash, injiqlik qilish, hissiy taranglik kabi holatlar kuzatiladi. Hattoki, 6-7 yoshli bolada ham aynan shu holat kuzatilishi mumkin. Ayrim ota-onalar o'zlari uy bekasi bo'lganliklari, yoki uyda qarashga buva-buvisi bor bo'lsa, bolalarini bog'chaga berishga hojat yo'q deb o'ylaydilar va maktabga chiqishga yaqin qolgan paytda yozish va o'qishni o'rganishi, nutqini biroz bo'lsada o'stirishi uchun ham 5-6 yoshli bolasini maktabgacha ta'lim muassasasiga olib keladigan ota-onalar ham uchraydi. Bu vaziyatda bog'chaga kelgan bolada moslashish yana ham qiyinroq kechadi. Sababi, bola ancha esini tanigan, uyda xohlagan ishini qilib o'rgangan va tartib intizomni qabul qilishi qiyinroq kechadigan yoshda bo'ladi. Bu esa ularda xavotir va qo'rquvni paydo bo'lish ehtimoli ko'pligidan dalolat.

Umuman olganda tashvish va xavotirlik holatlar bu yoshdagi bolalarda uchrab turadigan va ko'p kuzatiladigan holatlardan biri hisoblanadi. Agar xavotirlik vaqtinchalik bo'lsa, bola ma'lum vaqt o'tgach muhitga moslashib ketadi. O'zidagi qorquv va havotirni yengib o'tishi mumkin. Ammo xavotirli holat o'ta kuchli bo'lsa, bunday bolalar muhitga moslasha olmaydilar, boshqa bolalarga nisbatan



judal rivojlanishdan orqada qolishlari mumkin. Kelajakda ham bu holat bolaning hayotda o'z o'rnini topishida ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xavotir - bu individual psixologik xususiyat bo'lib, u turli sabablarga ko'ra (yoki ularsiz ham) odamning tashvishlanish moyilligining oshishidan iborat. Agar bola ba'zida ayrim vaziyatlarda, masalan, ommaviy nutq yoki yangi muhitga moslashish oldidan tashvishlansa va ba'zida xuddi shunday sharoitda xotirjam bo'lib qolsa, biz tashvish haqida gapirishimiz mumkin, lekin xavotir haqida emas.

Bolalarda xavotirlanishning sababi oiladagi vaziyat, ko'pincha ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, agar ota-ona majoziy ma'noda "diktatorlik" deb ataladigan tarbiya uslubiga rioya qilsa yoki bolaga haddan tashqari talablar qo'ysa, ehtimol, ota va onaning umidlarini qondirishga harakat qilib, ularning noroziligini kutsa, bola juda erta katta bo'lib qoladi. Agar ota-onalar bir-biri bilan janjallasha, oiladagi kattalarning daromadlari, ishi va turmush tarzidan noroziligi bo'lsa, oiladagi nizoli muhit ham shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ota-onalarning ajrashishi tashvishlarning keskin oshishiga olib keladi. Agar kattalar bir-biri bilan kelisha olmasalar va xatti-harakatlarida bir-biriga zidlik bo'lsa, bu davr ayniqsa bolaning hayotidagi eng qiyin va og'riqli davri bo'lib qoladi.

Yuqoridagi barcha mulohazalar xavotirni maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davriga xos jihatlarini o'rganish va kuzatish uning oqibatlarini aniqlash bolalarda psixokorreksion ishlarni tashkil etish uchun muhimligini isbotlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xavotirlanish hissining rivojlanishini juda yuqori va juda past darajasi hissiy-sezgilarning noto'g'ri namoyon bo'lishi, hissiy-sensorli moslashuvning belgisi, natijasidir. Xavotirlanishning juda past darajasi bolalarning xavf-xatarni his qilmasligiga olib kelsa, aksincha, juda yuqori darajasi esa shaxsiy xavotirlanishga aylanishi bilan tahdid qilishi mumkin. Bu esa hissiy holat buzilishiga olib kelishi borasidagi xulosalar bu muammoni kengroq empirik ma'lumotlarga asoslangan nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganishning zarurligini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanov xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Do'stmuxammedova Sh.A., Nishanova Z.T. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. –T.: Fan va texnologiya. 2013, – 343 b.
3. Rasulova Z.A. Farzand tarbiyasiga oid psixologik maslahatlar. T.: 2014. - 106 b.
4. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб. [и др.]: Питер, 2008. – 398 с.
5. Abduvalitov N.B. Oilada bola psixologiyasi // Zamonaviy ta'lim. T.: 2017. – B. 53-54.